3-BO‘LIM.
TARBIYA METODIKASI VA TEXNOLOGIYALARI

SHAXSNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYAVIY IDEALNI DIFFERENSIAL MODELLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Maxmudov Abdulxalim Xamidovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor
Quronov Muhammadjon Quronovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bosh ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs tarbiyasining inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, xulq-atvor va insoniy fazilatlarning tarbiya jarayonida shakllanishi masalalari yoritilgan. Jaloliddin Davoniy va Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniyning tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy pedagogik jarayon bilan bog‘langan holda tahlil qilinib, shaxsning muvaffaqiyatini ta’minlovchi bilim, amal va ixlosning ahamiyati asoslangan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va hayot sur’atining jadallashuvi sharoitida tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, yosh davrlariga mos tarbiyalangan shaxs modellarini ishlab chiqish hamda milliy tarbiya nazariyasini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloqiy tarbiya, xulq-atvor, shaxs kamoloti, Jaloliddin Davoniy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, drayver kompetensiyalar, milliy tarbiya, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, tarbiyalangan shaxs modeli.

Аннотация. В статье рассматриваются роль воспитания в развитии личности и общества, а также вопросы формирования поведения и нравственных качеств человека в процессе воспитания. Взгляды Джалолиддина Давани и Ходжи Абдухалика Гиждувани на воспитание анализируются в контексте современной педагогики, раскрывается значение знаний, практической деятельности и искренности в достижении личностного успеха. Обосновывается необходимость модернизации системы воспитания в условиях цифровизации, развития искусственного интеллекта и ускорения темпов жизни, а также разработки моделей воспитанной личности

с учётом возрастных этапов и совершенствования национальной теории воспитания.

Ключевые слова: воспитание, нравственное воспитание, поведение, развитие личности, Джалолиддин Давани, Ходжа Абдухалик Гиждувани, драйверные компетенции, национальное воспитание, цифровые технологии, искусственный интеллект, модель воспитанной личности.

Abstract. The article examines the role of education and upbringing in personal development and social progress, focusing on the formation of human behavior and moral qualities through the educational process. The views of Jalaluddin Davani and Khoja Abdukhaliq Gijduvani on upbringing are analyzed in the context of modern pedagogy, highlighting the importance of knowledge, practical action, and sincerity in achieving personal success. The article also substantiates the need to modernize the system of upbringing in the context of digitalization, artificial intelligence, and the accelerating pace of life, as well as to develop models of a well-rounded individual based on age-specific stages and improve the theory of national upbringing.

Keywords: upbringing, moral education, behavior, personal development, Jalaluddin Davani, Khoja Abdukhaliq Gijduvani, driver competencies, national upbringing, digital technologies, artificial intelligence, model of a well-rounded individual.

Internetda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab platformalar, vebinarlar, podkastlar mavjud (Amaliy fanlar akademiyasidagi Oleg Malsev seminarlari[1] , «Sifat standarti» markazi, odam xulqini o‘rganish markazi va h.k. Bular bugunning gaplari. Bundan 600 yil oldin tarbiya nima uchun kerakligining universal javobini asoslab bergan bobomiz Jaloliddin Davoniy (1427-1502 “Tariqati tarbiyat ul-avlod” (“Bolalarni tarbiyalash usuli”) va o‘zining eng yirik risolasi - “Axloqi Jaloliy”ni bitib ketgan. Bu asarlar 1470-1478-yillar orasida yozilgan bo‘lib, ular axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Shuning uchun bu kitoblarni tarbiya nazariyasining eng muhim manbalari deb qaraymiz. Mutafakkirning talqinicha, axloq(xulqlar haqidagi) fani kishilarning amaliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun alloma xulq muammolarini falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda ko‘radi.

Davoniy kashf etgan muhim pedagogik qonuniyatlardan biri - inson fazilatlari yoshlikdan, tarbiya natijasida, kishilar bilan o‘zaro munosabatlarda kasb etilishidir. Har bir fazilat vaqt o‘tishi bilan yangilanishi va o‘zgarishi(demak, yo‘qolishi ham (M.Q., A.M.) mumkin. Chunki “Agar (inson) xulqi, - deb yozadi olim, - o‘zgaruvchi bo‘lmaganida edi, siyosat va tarbiyaning keragi bo‘lmas edi”[2].

[1] https://www.slav-nayka.com/#firstPage.(npocMOTp 15.12.2022)
[2] https://www.slav-nayka.com/blog/azy-prikladnoy-nauki/ustroystvo-modeli-povedeni- ya-cheloveka(npocMOTp

Bu ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun fundamental kashfiyot bo‘lib, ma’rifat, din, siyosat, san’at, adabiyot, xalq og‘zaki ijodiyoti, folklor, kino va boshqa ijtimoiy ong shakllarining paydo bo‘lish, rivojlanish sababini ochib beradi. Afsuski, biz buyuklarning tarbiya haqida aytgan hikmatlarini, aforizmlarini takror-takror aytamiz. Lekin sirtdan qaraymiz, “ichiga” kirmaymiz.

“Mana shu hikmatni rekonstruksiya qilib ko‘raylik-chi”, deb harakat qilmaymiz. Vaholanki, biz faxrlanadigan buyuk bobolar xulqni nazariy masala deb qarashmagan. Aniq operatsiyalar, xatti-harakatlar konstruksiyasi, zanjiri deb tushunishgan. Buning umuminsoniy tasdig‘i bormi? Bor. Dunyoda barcha xalqlarning maqollari real xulq konstruksiyasini, modelini ifodalaydi. Bu tahlildan bir o‘ta muhim, fundamental xulosa chiqadi. Ya’ni xulq - obyektiv hodisa. U triggerdan boshlanadi, davom etadi, yakunlanadi. Xulqni ko‘rish, sezish, kuzatish, qayd qilish mumkin. Bu esa pedagogika fani, ham nazariy va gumanitar, ham aniq fan ekanligini tasdiqlaydi.

Asrlar o‘tdi. Biroq, xulq masalasining mohiyati o‘zgargani yo‘q. Odamning maqsadga yetish vositalari, texnika va texnologiyalari o‘zgardi, modernizatsiyalashdi. Lekin odamlarga xos fazilatlar va ularning antonimlari ro‘yxati o‘zgargani yo‘q. Xuddi shuningdek, buyuklarimizning muvaffaqiyatga erishish uchun zarur DK (drayver kompetensiyalar) haqidagi hikmatlari ham o‘zgargani yo‘q.

Hazrati Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyning XIII asrda yaratgan “G‘ijduvoniy uchligi” bilan bugungi kunimizga bir qaraylik. Ana shunda bilim ovqatlanishda ham, mashina haydashda ham, davolanishda ham, bola tarbiyalashda ham, androidni ishlatishda ham, e’tiqodda ham, fermerlikda ham - har bir ishning muvaffaqiyat kafolati bo‘lib chiqaveradi. Ya’ni 1) “nima qilmoqchi bo‘lsangiz, shu ishning ilmiy asosini biling. 2) Bildingizmi, ish qilayotganingizda bilganingizga amal qiling. 3) Amal [ish)ni ilmiy asosda qilyapsizmi, endi uni ixlos bilan bajaring[3].

Demak, G‘ijduvoniy triadasini interpretatsiya qilsak, unga ko‘ra odamning omadsizligiga 3 sabab bor. Bular: 1) qilayotgan ish xulqining ilmiy asoslarini bilmaslik; 2) ilmiy asoslarga amal qilmaslik, kompetentsizlik; 3) bajarishda sustkashlik, g‘ayratsizlik ekan. Muammoning pedagogik sababi nimada? Sabab - trener, ustoz, ustod, kouch tomonidan shu ishni qiluvchiga [shogirdga, o‘quvchiga) muvaffaqiyat keltiruvchi drayver kompetensiyalarni o‘rgatilmaganligidir.

Pedagogika o‘zining bifurkatsiya nuqtasiga yetib keldi. An’anaviy pedagogik tizim o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan tashqi ta’sirlar natijasida o‘zgardi. Pedagogik beqarorlik yuzaga keldi. Bilim ko‘p, kompetensiyalar kamligi sezilyapti. Chunki bilimlarning kompetensiyalarga ayla-

[3]Хожа Ориф ар-Ревгарий. Орифнома. /Кбайта ишланган иккинчи нашри. “Дурдона”, 2012. 20-б.

nishi kamayib boryapti. Chunki pedagog bilimlarni kompetensiyalarga aylantira olmayapti. Bu hol davom etaversa, yo xaos bo‘ladi, yo “bilim-kompetensiya” transformatsiyasi o‘zining yangi tartibiga ega bo‘ladi.

Biz bu stixiyani boshqarishimiz kerak. buning uchun Xay tek tarbiyani yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Xay tek tarbiya bu - Modernizatsiya, Texnologiyalashuv. Algoritmlashuv. Minimallashtiruv. Axborotlashuv. Taym menejment. Operatsionallashuv. Neobixeviorizm. Kouching kabi nisbatan avtonom, biroq, tizimli zanjirdan iborat.

Hayot tempining tezlashishi, sun’iy intellect (SI) odamlarning xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Futurolog Elvin Tofflerning fikricha, biz raqamli, axborot va texnologik revolyutsiyalar davrida yashayapmiz. Toffler vafot etdi, lekin o‘tayotgan yillar uning bashoratlarini tasdiqlamoqda.

Buning pedagogikaga aloqador jihatlari nimada? Pedagogika inson tarbiyasi to‘g‘risidagi fan. Shunday ekan, u hayot talablariga ergashmasligi, aksincha, hayot talablaridan oldinda yurishi kerak. Chunki yoshlarga o‘z talablarini “kechagi kun” emas, hatto “bugungi kun” ham emas, balki “ertangi kun” qo‘yadi. Biroq, bu prinsip bajarilmayapti. Tarbiya pedagogikasi hayot talablaridan ortda qolyapti. Bu kechikish yigit-qizlarni mustaqil hayotga qaytadan, kechikib, qayta tayyorlanib kirib borishlarida namoyon bo‘lmoqda. Natijada maktablarni bitirgan yigit va qizlarning bir qismi mustaqil hayotga ma’naviy va malakaviy tayyorlanmasdan kirib borishmoqda. Buning oqibatida ishsizlar, ijtimoiy himoyaga muhtojlar, ajrimlar, jinoyatlar ko‘paymoqda. “Hayot tempi bu - faqat suhbatlarda bir birimizga aytib, keyin xo‘rsinib qo‘yadigan yoki hazillashib aytiladigan ibora emas. Bu biz amaliy hayotda inkor qilayotgan o‘ta muhim, real voqelikdir. Afsuski, ta’lim-tarbiya buni o‘rganib, odamlarni super industrial jamiyatda mahsuldor rollarga tayyorlashga tayyor emas”[4].

“Nima qilmoq kerak?” degan savolga, nazarimizda har bir yosh davri bo‘yicha tarbiyalangan shaxs modelini yaratish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Avval ilmiy g‘oyamizni keltirsak, u quyidagicha:

Agar bizda inson ontogenezining har bir yosh davri bo‘yicha ideal tarbiyalangan shaxs modeli yaratilsa (muvaffaqiyatli o‘zbekistonlik Modeli) va ushbu modellar(maqsadlar)ga erishish texnologiyalari (ya’ni O‘zbekiston yoshlarini muvaffaqiyatli shaxslar qilib tarbiyalash mazmuni, strukturasi, usullari, vositalari, shakllari) aniq bo‘lsa, hamda bu tarbiya texnologiyalari o‘zida:yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan o‘zbekistonliklarning pedagogik tarixi, tarbiya andozalari, tayanch, bazaviy drayver kompetensiyalari(DK) tarkibini, O‘zbekiston maktablari

[4] Тоффлер Э. Шок будущего. Часть 1. Конец постоянства - Режим доступа: http:// read24.ru/fb2/elvin-toffler-shok-buduschego

o‘quvchilarida tayanch DKlarning yoshlariga mos shakllanganlik me-zon va darajalarini qamrab olgan bo‘lsa, ushbu ma’lumotlar asosida O‘zbekiston yoshlarini muvaffaqiyatli shaxslar qilib tarbiyalashning milliy tarbiya nazariyasi va metodikasi yaratiladi.


Ushbu “Milliy muvaffaqiyat tarbiyasi Konsepsiyasi”ni yaratishni yosh davri bo‘yicha tarbiyalashning differensial modellarini ishlab chiqishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun O‘zbekistonda Marka-ziy Osiyoda yagona huquqiy-me’yoriy asos yaratilgan. Bu - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbi¬ya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amal-ga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori asosida qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”(UMTK)dir. Konsepsiyaga bi-noan tarbiyalanganlikning quyidagi to‘rt bosqich-darajalarini belgilab olamiz[1]:

birinchi bosqich (tarbiyalanganlikning birinchi darajasi modeli M1v) - oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich (tarbiyalanganlikning ikkinchi darajasi modeli M2v) - maktabgacha ta’lim 3 - 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich (tarbiyalanganlikning uchinchi darajasi modeli M3v) - umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - 7 (6) - 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr - 11 - 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich (tarbiyalanganlikning to‘rtinchi darajasi modeli M4v) - ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasal-ari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - o‘rta maxsus kasb-hunar,



1-rasm. Tarbiyalan-ganlikning to‘rt dara-jali modellari.

Bu yerda:

V - vaqt (yillar);

M_i - tarbiya shaxs modeli (i-yosh davrlar-i,bosqichlar);

T_j - tarbiya darajalari.

oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh); ikkinchi davr - o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar - 17 - 30 yoshlilar.

Ushbu modellarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqliklarini quyidagi diagramma yordamida aks ettirish mumkin (1-rasm.).

Diagrammada 2-D texnologiya ko‘rinishida keltirilgan, ya’ni matematika tili bilan aytilganda X va U o‘qi. X o‘qi bo‘yicha vaqt o‘lchanadi (B), bu yillar, yosh davrlari. U o‘qi bo‘yicha tarbiyalanganlik darajalari (T). Shartli ravishda 4 darajalarga bo‘ldik (bosqichlarga mos holda).

Har bir bosqichda shaxs tarbiyalanganlik darajasining modeli (Mi) o‘zida mazmun, tuzilma, tamoyillar, amalga oshirish mexanizmlari va baholash mezonlarini qamrab olgan. Shaxs tarbiyalanganligining darajali modellarini shakllantirishning maqsadi - yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur fazilatlar hamda kompetensiyalar(soft skills, hard skills)ni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishning didaktik-texnologik ta’minot xususiyatlarini aniqlashdir[2, 3]. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Har bir daraja modelining:


* tarbiya maqsadi va vazifalarini;
* tarbiya natijasi parametrlarini;
* tarbiya mazmunini;
* tarbiya metodlarini;
* tarbiya vositalarini;
* tarbiya shakllarini;
* tarbiya mezonlarini;
* tarbiya subyektlarini;
* tarbiya sohasidagi normativ-huquqiy xujjatlarini;
* tarbiyaviy inklyuziya xususiyatlarini;
* tarbiya qonuniyatlarini aniqlash kerak.

Har bir bosqichning daraja modelini shakllantirish jarayonida quyidagi prinsiplarga tayanish kerak:

* uzluksizlik va uzviylik;
* ilmiylik va amaliyotga yo‘naltirilganlilik;
* tarbiyalanuvchilarning faolligi;
* tizimlilik va kvalimetriya;
* ilmiy qadriyatlarning global konvergensiyasi;
* texnologik bosqichlilik;


* ko‘rgazmalilik va ishonchlilik;
* raqamlashtirish, Hi Tech;
* individual va differensial yondoshuv;
* shaxsga yo‘naltirilganlilik;
* kompetensiyaviy yondoshuv.

Har bir tarbiya darajasi modelining strukturasi 2-rasmda keltirilgan.



2-Rasm. Tarbiya shaxs modelining tashkil etuvchilari.

Umumiy holda tarbiyalanganlikning darajali modellarining shakllanish texnologiyasi 3-rasmda keltirilgan.



3-Rasm. Tarbiya shaxs modelining texnologiyasi.

Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, yuqorida ta'kidlanganday "Texnologiyalashuv, algoritmlashuv, Hi Tech, axborotlashuv, taym menejment, operatsionallashuv, neobixeviorizm, kouchinglar bilan birga yaxlitlilik, tizimlilik, ixchamlilik, tezkorlik prinsiplari desak adashmagan bo'lamiz. Bularni tarbiya konsepsiyasini yaratishda zamonaviy pedagogik-psixologik instrumentlar sifatida qabul qilsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4676839

2.Najot tarbiyada/X.Ibraimov, M.Quronov, F.Boqiyev. - Tosh¬kent, “Noshir” 2024. 62 b.

3.Голованова, Н.Ф., Дерманова, И.Б. Саморазвитие личности как предмет педагогики и психологии. Вестник Санкт- Петербургского университета. Психология и педагогика, 2018, 8(4), 353-364.

4.Deci, E.L., Ryan, R.M. Intrinsic motivation and self-determina¬tion in human behavior. New York: 2016, Plenum.

5.Quronov M. Singulyar pedagogika nazariyasiga chizgilar//. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2024-yil 10-dekabr. T.N.Qori Niyoziy nomidagi TPMTI.

6.Маслоу, А. Мотивация и личность. Санкт-Петербург: Питер. 2008.

7.Роджерс, К. Становление личности: Взгляд на психотерапию. Москва: Институт общегуманитарных исследований. 2016, 280 с.

8.Вудсток, М., Френсис, Д. Раскрепощенный менеджер. Для руководителя-практика. Москва: Дело. 2015, 32 с.

9.Arens, A.K., Marsh, H.W., Pekrun, R., Lichtenfeld, S., Murayama, K., vom Hofe, R. [2018). An integrated model of academic self-con¬cept development: Academic self-concept, grades, test scores, and tracking over 6 years. Developmental Psychology, 54(3), 397-411.

10.G‘oziyev, E. Ontogenez psixologiyasi: Nazariy-eksperimental tahlil. Toshkent: Noshir. 2010.

11.Махмудов А. Х., Фефелов В. С., Камилова А. Б. Инновационные пути педагогического прорыва //Современное образование (Узбекистан). - 2019. - №. 6 [79). - С. 3-9.